Yaxshiboyev Shavkat Quramboyevich (Urganch davlat universiteti dotsenti v.b., falsafa doktori (PhD)

XORIJIY MAMLAKATLAR SIYOSIY MADANIYATI TABIATI VA RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada xorijiy mamlakatlar siyosiy madaniyatining tabiati, shakllanish omillari va rivojlanish xususiyatlari Buyuk Britaniya hamda Fransiya misolida tahlil qilingan. Tadqiqotda ushbu davlatlarda siyosiy madaniyatning tarixiy ildizlari, demokratik qadriyatlarning shakllanishi, fuqarolik jamiyatining roli va siyosiy institutlarning ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, Britaniya siyosiy madaniyatiga xos konservativlik, huquqiy an'analar va parlamentchilik tamoyillari hamda Fransiya siyosiy madaniyatida respublikachilik, siyosiy faollik va markazlashgan davlat boshqaruvi xususiyatlari qiyosiy tahlil qilingan. Maqola xorijiy davlatlar siyosiy tajribasini o'rganish orqali milliy siyosiy madaniyatni rivojlantirish masalalariga ilmiy yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *siyosiy madaniyat, demokratiya, fuqarolik jamiyati, parlamentchilik, respublikachilik, siyosiy institutlar, siyosiy qadriyatlar, siyosiy tizim, siyosiy ong, davlat boshqaruvi.*

ПРИРОДА И ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ПОЛИТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН

Аннотация. *В данной статье анализируются сущность, факторы формирования и особенности развития политической культуры зарубежных стран на примере Великобритании и Франции. В исследовании раскрываются исторические корни политической культуры данных государств, процесс формирования демократических ценностей, роль гражданского общества и значение политических институтов. Кроме того, проводится сравнительный анализ таких особенностей британской политической культуры, как консерватизм, правовые традиции и принципы парламентаризма, а также характерных черт французской политической культуры — республиканизма, политической активности и централизованной системы государственного управления. Изучение политического опыта зарубежных государств способствует формированию научного подхода к вопросам развития национальной политической культуры.*

Ключевые слова: *политическая культура, демократия, гражданское общество, парламентаризм, республиканизм, политические институты, политические ценности, политическая система, политическое сознание, государственное управление.*

THE NATURE AND DEVELOPMENTAL FEATURES OF THE POLITICAL CULTURE OF FOREIGN COUNTRIES

Annotation. *This article examines the nature, formation factors, and developmental characteristics of the political culture of foreign countries through the examples of Great Britain and France. The study explores the historical roots of political culture in these states, the formation of democratic values, the role of civil society, and the significance of political institutions. In addition, a comparative analysis is conducted of the distinctive features of British political culture, including conservatism, legal traditions, and the principles of parliamentarianism, as well as the characteristics of French political culture, such as republicanism, political activism, and centralized public administration. By studying the political experience of foreign countries, the article contributes to the development of a scientific approach to issues related to the advancement of national political culture.*

Keywords: *political culture, democracy, civil society, parliamentarianism, republicanism, political institutions, political values, political system, political consciousness, public administration.*

Kirish. Siyosiy madaniyat juda keng qamrovli tushuncha bo'lib, ko'plab omillarni o'z ichiga oladi. Siyosiy madaniyatni davlat va jamiyat bog'lashda uning shakllanishi hamda taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlarini doimo hisobga olish zarur, chunki unda madaniy, tarixiy, milliy va geografik jihatlar muhim rol o'ynaydi.

O'z e'tiborini insoniy qadriyatlar, stereotiplar, ramzlar mazmuni, inson mentaliteti muammolari va shunga o'xshash hodisalarga qaratgan holda, siyosiy madaniyat nazariyasi fuqarolarning siyosiy xulq-atvori motivatsiyasini yanada chuqur o'rganish, an'anaviy siyosatga murojaat qilish bilan izohlab bo'lmaydigan to'qnashuvlar sabablarini aniqlash uchun noyob imkoniyat yaratadi. Buning jamiyat hayotida bir qator omillari bilan bir qatorda, hokimiyat uchun kurash, resurslarni qayta taqsimlash kabi sabablari bor.

Siyosiy madaniyat va u bilan bog'liq bo'lgan hodisalarni tahlil qilish siyosiy ong sohasida sodir bo'layotgan jarayonlarni siyosiy jihatdan to'g'ri talqin qilish, siyosiy sohadagi ko'plab salbiy hodisalar va muammoli vaziyatlarning sabablari va oqibatlarini aniqlashga imkon beradi. Yangi davlatchilikning shakllani-

shi, yangi mafkuraviy koʻrsatmalarni shakllantirish jarayoni doimiy ravishda siyosiy madaniyat muammosini hal qilishni dolzarb vazifaga aylantiradi.

Siyosiy madaniyat – umumiy madaniyatning muhim bir ajralmas tarkibiy qismi hisoblanib, jamiyatning siyosiy rivojlanishi jarayonida fuqarolarning tegishli siyosiy bilim va tajribalarga ega boʻlishida, siyosiy voqealarga oʻz munosabatlarini bildirishlarida hamda baho berishlarida va boshqa ana shunga oʻxshash holatlarda namoyon boʻladi.

Adabiyotlar sharhi. Davlatning ichki hamda tashqi siyosatini tushuna bilish, uni tahlil qila olish va siyosiy vaziyatga qarab, mustaqil ravishda oʻz xatti-harakatini belgilay olish, siyosiy voqealarni oldindan koʻra bilish, nazorat qilish va amaliy yoʻnalishlarni aniqlay olish kabi xislatlar esa fuqaroning siyosiy madaniyatini belgilovchi mezonlar hisoblanadi.[1]

Har qanday jamiyatning siyosiy madaniyati oʻziga xos xususiyatlarga ega boʻlib, u faqat maʼlum bir jamiyatga xos boʻlgan qadriyatlarni, meʼyorlarni, stereotiplarni, siyosiy ishtirok etish shakllarini va hokimiyat munosabatlarini aks ettiradi. Siyosiy madaniyat shakllanishi va rivojlanishi tarixiy sharoit, gʻoyaviy munosabat, diniy omillar va geografik joylashuv bilan belgilanadi.

Turli xil xalqlarning oʻziga xos xususiyatlari va qadriyatlarini aniqlash juda qiyin. Koʻzda tutilishi kerak boʻlgan koʻpgina omillar mavjud.

Britaniyada siyosiy madaniyat shakllangan birinchi mamlakat boʻlib, mamlakatda siyosiy institutlar va demokratik qadriyatlar faol ishlay boshladi. U rivojlangan fuqarolik jamiyati bilan ajralib turadigan kuchli parlament anʼanalariga ega mamlakat. Buyuk Britaniya zamonaviy parlamentarizmning vatani va parlament toʻliq hokimiyatni oʻz zimmasiga olgan birinchi mamlakat hisoblanadi.[2]

XVII asrdagi inqilob voqealari, fuqarolar urushlari va Kromvel diktaturasi inglizlarning ijtimoiy formatsiyalarga radikal yondashishdan qoʻrqishini kuchaytirdi, jamoat hayotidagi barqarorlik va tartibga ahamiyat kuchaydi. Oʻsha vaqtdan buyon Buyuk Britaniyaning siyosiy tizimi doimiy ravishda boshqaruv hokimiyati oʻrtasidagi muvozanat va ushbu kuchga qoʻyilgan cheklovlar bilan ajralib turadi. Bunday cheklovlar turlicha talqin qilingan oʻyin qoidalari, masalan, parlamentdagi qarama-qarshilik shaklida boʻlgan; kuchli ijro etuvchi hokimiyatning parlament va oxir-oqibat saylovchilar oldida hisobdorligi, erkinlik va tartib tamoyillari oʻrtasidagi muvozanatni saqlashga imkon beradigan har xil siyosiy va ijtimoiy, iqtisodiy tiyib turish va muvozanat omillari.

Rasmiy ravishda Buyuk Britaniyada konstitutsiya yoʻq. Tadqiqotchilar "Buyuk Britaniya konstitutsiyasining oʻziga xos xususiyati, uning yozilmagan tabiatida, shu sababli qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar oʻrtasidagi munosabatlarni tartibga solishda – konstitutsiyada belgilangan huquqiy normalar orqali emas, balki, aslida, odatiy huquqiy presedentlar yoki parlament kelishuvlari, deb ataladigan tizim orqali amalga oshiriladi".[3]

Britaniya siyosiy madaniyatining oʻziga xos xususiyati ijtimoiy-siyosiy tizimning qonuniyligi deb hisoblanadi, bu esa, oʻz navbatida, davlat siyosati bilan kafolatlanadi. Bu fuqarolarning davlat siyosiy tuzilmalariga yuqori darajada sodiqligini va ularning faoliyat koʻrsatayotgan mexanizmidan gʻururlanish hissini shakllantiradi. Boshqa mamlakatlar bilan taqqoslaganda, Buyuk Britaniyada siyosiy zoʻravonlik darajasi past. Rejimga boʻysunish omilining oʻzi qonunga boʻysunish, hokimiyatga sodiqlik va qonunning adolatliligiga ishonishga qaratilgan kompleks motivlarga asoslanadi. Aholining aksariyati qonunlarning adolatli emasligini, axloq meʼyorlarini inkor etishini tasavvur ham qila olmaydi. Sotsiologik tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, davlatda fuqarolar qonunning daxlsizligiga shunchalik chuqur ishonishadiki, respondentlarning deyarli yarmi, hatto xato boʻlsa ham, qonunga rioya qilish kerak, degan fikrda.

Inglizlarning siyosiy xulq-atvori kuch tuzilmalariga taʼsir oʻtkazish vakolatiga boʻlgan ishonchi, shu bilan birga passivligi bilan ajralib turadi, chunki hukumatga ishonganligi sababli ular faol siyosiy harakatlardan voz kechishga tayyordirlar. Oʻz navbatida, hukumat fuqarolar oldida hisobot berib, samarali ishlashi uchun yuqori avtonomiyalarga ega.

---

[1] Жалилов А. Ўзбекистонда ёшлар сиёсий маданиятининг ривожланиш жараёнлари. Сиёс.фан.бўй.фалс.док. (PhD) дисс. автореф., Т., 2020, 14–15-бетлар.

[2] Скок Н.В. Национальные модели политической культуры. Н.В.Скок. Могилев, МГУ им. А.А.Кулешова, 2001, с. 54.

[3] Скок Н.В. Национальные модели политической культуры. Н.В.Скок. Могилев, МГУ им. А.А.Кулешова, 2001, с. 71.

Inglizlar ovoz berishga katta ahamiyat berishadi, aynan saylovlar paytida siyosiy partiyalar tomonidan saylovchilarni faol siyosiy safarbarligi amalga oshiriladi.[4]

Fransiyaning siyosiy madaniyati beqaror, nostandart xarakterga ega. Buning sababi tarixiy sharoitlardir (Fransiya Yevropada yagona hokimiyat markaziga aylanishi mumkin edi, Napoleon Bonapart barcha sa'y-harakatlarini ushbu maqsadga erishish uchun yo'naltirdi, ammo Fransiyaning davlat sifatida beqarorligi sabab o'z maqsadiga erisha olmadi).[5] O'zining butun tarixi davomida mamlakat boshqaruvning ko'plab shakllarini o'zgartirdi. So'nggi ikki yuz yil ichida davlatda o'nga yaqin konstitutsiyaviy hujjatlar va saylov tizimlari o'zgargan. Rejimlarni almashtirish usullari turli xil: inqiloblar, armiya aralashuvi, parlament kurashi, to'ntarishlar. Fransiya partiya tizimi ham juda o'zgaruvchan. Ushbu omillar fransuz jamiyatining siyosiy madaniyatida sezilarli iz qoldirdi. Fransuzlarning o'zlari mamlakatning inqilobiy tarixi, Yevropadagi uzoq muddatli gegemonligi, adolat va erkinlik g'oyalari uchun kurashlari va jahon madaniyati rivojiga qo'shgan hissalari bilan faxrlanadilar.

Mulohaza. Buyuk fransuz inqilobining "Ozodlik, tenglik, birodarlik" shiori asrlar davomida dunyoning turli burchaklaridagi millionlab odamlarning ozodligi uchun kurash ramziga aylandi. Fransiya siyosiy madaniyatining markaziy elementi respublika boshqaruv shakli edi. Respublika an'anasi siyosiy va ijtimoiy totuvlik, ozchilikning huquqlarini hurmat qilish va siyosiy ekstremizmga qarshi kurash tamoyillarini o'z ichiga oladi.

Faol saylov tizimi tomonidan qo'llab-quvvatlangan Skandinaviya yoki Angliya-Saksoniya mamlakatlari bilan taqqoslaganda, Fransiyada demokratiya boshqa ssenariy bo'yicha tubdan rivojlanmoqda. Fransuz demokratiyasi "200 yil davomida faqat mavjud shakllar doirasida emas, balki ularning asosida yuzaga kelgan boshqa shakllar tarzida" harakat qildi, vaqti-vaqti bilan ba'zi bir shakllarni buzib, umuman, boshqalarini yaratdi".[6]

Keyinchalik, fransuz jamiyatida "inqilobiy siyosiy madaniyatga" qiziqish sezilarli darajada pasayadi. Barcha radikal mafkuralar jamoat ongida tobora salbiy ma'no kasb etmoqda. Ba'zi fransuz olimlari siyosiy kuchlarni chapga va o'ngga bo'linish dixotomiyasiga barham berish mumkin, deb hisoblaydilar. Kollektivistik qadriyatlarning obro'si hatto Fransiyaning xalqaro siyosiy madaniyatida ham anchayin pastlashgan.[7]

G'arbiy Yevropa turli xil siyosiy madaniyatlarni namoyish etadi. Ushbu mintaqada joylashgan mamlakatlar boy siyosiy madaniyatga ega bo'lib, bu ulardagi siyosiy tizimlarining yanada rivojlanishi, siyosiy hayotning demokratik uslubi mavjudligi, G'arbiy Yevropa davlatlari aholisi madaniyati va qadriyatlarining xilma-xilligini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy mamlakatlar siyosiy madaniyati jamiyatning tarixiy taraqqiyoti, milliy qadriyatlari va siyosiy tizimi bilan chambarchas bog'liqdir. Buyuk Britaniya siyosiy madaniyatida parlamentchilik, huquqiy an'analar va siyosiy barqarorlik ustuvor ahamiyat kasb etsa, Fransiya siyosiy madaniyatida respublikachilik, fuqarolik faolligi va demokratik tamoyillarga sodiqlik muhim o'rin tutadi. Har ikki davlat tajribasi siyosiy madaniyatning demokratik jamiyat rivojidagi o'rni naqadar muhim ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, siyosiy madaniyat fuqarolarning siyosiy ongini shakllantirish, davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash hamda siyosiy barqarorlikni ta'minlashda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu bois xorijiy tajribalarni o'rganish milliy siyosiy madaniyatni rivojlantirish va demokratik islohotlarni takomillashtirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Большая Европа. М., "ИНФРА– М"., издательство "Весь мир", 2014, с. 93.

(2). Жалилов А. Ўзбекистонда ёшлар сиёсий маданиятининг ривожланиш жараёнлари. Сиёс фан.бўй. фалс. док. (PhD) дисс.автореф., Т., 2020, 14–15-бетлар.

(3). Ирхин Ю.В. Социология культуры. М., "Экзамен", 2016, с. 8.

(4). Скок Н.В. Национальные модели политической культуры. Могилев, МГУ им. А.А.Кулешова, 2001, с. 54.

[4] Ирхин Ю.В. Социология культуры. Ю.В.Ирхин. М., "Экзамен", 2016, с. 86.

[5] Большая Европа. М., "ИНФРА– М"., издательство "Весь мир", 2014, с. 93.

[6] Салмин А.М. Природа и роль базовых политических ориентаций (на примере Франции). Полития. Анализ. Хроника. Прогноз. 2005, № 3, с. 194.

[7] Цыганков П.А. Политическая культура и национальные школы социально-гуманитарного знания (пример французской теории международных отношений). Политическая культура современной России: состояние, проблемы, пути трансформации. Материалы "круглого стола", М., КДУ, 2009, с. 146–147.

(5). Салмин А.М. Природа и роль базовых политических ориентаций (на примере Франции). А.М. Салмин. Полития. Анализ. Хроника. Прогноз. 2005, № 3, с. 194.

(6). Цыганков П.А. Политическая культура и национальные школы социально-гуманитарного знания (пример французской теории международных отношений). Политическая культура современной России: состояние, проблемы, пути трансформации. Материалы "круглого стола". М., КДУ, 2009, с. 146–147.

Pulatov Jaxongir Nazirovich (Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi "Ijtimoiy-iqtisodiy va amaliy fanlar metodikasi" kafedrasi mudiri, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsenti
pulatovjahongir00@gmail.com)

YANGI O'ZBEKISTONDA INSON QADRI VA IJTIMOIY TARAQQIYOTNING FALSAFIY TALQINI

Annotatsiya. *Maqolada Yangi O'zbekistonda inson qadrini ulug'lash va ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlash bir-birini taqozo etuvchi dialektik jarayon ekanligi, inson qadri, huquq va imkoniyatlari kafolatlanishi mamlakatda yangi intellektual va ma'naviy yuksalish davriga poydevor bo'lib xizmat qilishi falsafiy jihatdan tahlil qilingan. Inson qadrini yuksaltirishga doir ilmiy-nazariy taklif va tavsiyalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *inson qadri, inson manfaatlari, turmush darajasi, ijtimoiy taraqqiyot, barqarorlik, farovonlik, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, ijtimoiy adolat, pluralizm.*

ФИЛОСОФСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЧЕСТИ ЧЕЛОВЕКА И СОЦИАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. *В статье философски проанализировано, что возвеличивание человеческого достоинства и обеспечение социального развития в Новом Узбекистане являются взаимосвязанными диалектическими процессами, а гарантирование человеческого достоинства, прав и возможностей служит фундаментом для нового периода интеллектуального и духовного роста в стране. Представлены научно-теоретические предложения и рекомендации по повышению человеческого достоинства.*

Ключевые слова*: человеческое достоинство, человеческие интересы, уровен жизни, социальное развитие, стабилност, просветание, сотсиально-экономические реформы, сотсиалная справедливост, плюрализм.*

PHILOSOPHICAL INTERPRETATION OF HUMAN DIGNITY AND SOCIAL DEVELOPMENT IN NEW UZBEKISTAN

Annotation.*The article philosophically analyzes the fact that in New Uzbekistan, the glorification of human dignity and the provision of social development are mutually exclusive dialectical processes, and that the guarantee of human dignity, rights and opportunities serves as the foundation for a new era of intellectual and spiritual uplift in the country. Scientific and theoretical proposals and recommendations for the promotion of human dignity are presented.*

Keywords*: human dignity, human interests, standard of living, social development, stability, prosperity, socio-economic reforms, social justice, pluralism.*

Kirish. Bugungi ilm-fan taraqqiyoti o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqqan bir davrda inson qadrini ta'minlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, har qanday mamlakatlarning barqaror rivojlanishi va ijtimoiy taraqqiyoti uning iqtisodiy ko'rsatkichlari bilan emas, balki eng avvalo, insonga bo'lgan munosabati, uning huquq va erkinliklarini qay darajada ta'minlay olgani bilan baholanayotganligi yuqoridagi fikrga ishoradir. Shu ma'noda, Yangi O'zbekistonda kechayotgan tub islohotlar mohiyatini anglash, davlat va jamiyat poydevorini mustahkamlashga qaratilayotgan jarayonlarni falsafiy jihatdan tadqiq etish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu borada mamlakatimizda inson qadrini yuksaltirishga qaratilayotgan islohotlar "Inson qadri uchun" ezgu g'oyasi asosida olib borilayotganligi yangi davlatchilikning konseptual asosi va bosh falsafiy mezoniga aylandi. "Yangi O'zbekistonda "Davlat – inson uchun" tamoyili asosida inson huquqlarini rag'batlantirish, himoya qilish va ularga amal qilish masalalari islohotlarimizning eng ustuvor yo'nalishiga aylandi. Bu esa nafaqat yurtimizda, balki butun dunyoda mazkur islohotlarning demokratik tamoyillarga mosligi, ularning pirovard maqsadi va davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi inson qadri va manfaatlari, huquq va erkinliklarini ta'minlashga qaratilganining e'tirof etilishiga sabab bo'lmoqda" [1]. Zero, inson jamiyatdagi ijtimoiy adolatni, ma'naviy yuksalishni va barqaror iqtisodiy o'sishni harakatga keltiruvchi asosiy kuchdir. Demak, jamiyat hayotining barcha jabhalarini modernizatsiya qilish inson qadri va ijtimoiy taraqqiyotning o'zaro dialektik aloqadorligini falsafiy jihatdan talqin qilish dolzarb vazifalardan biridir. Chunki moddiy farovonlik ma'naviy va intellektual yuksalish bilan uyg'unlashmagan